

ADABIYOT FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARI

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani

39- mактабнинг олий тоифали она тли ва адабиёт фани о'қитувчиси

Botirova Durdona Sayitmurotovna

Annotatsiya: Bugungi texnika asrida o'quvchi yoshlarning zamon bilan hamnafas yashayotganligini hisobga olgan holda oddiy an'anaviy, ma'ruza darslari samaradorligi bir muncha pasaydi. O'quvchilarga ijodkorlikni, mustaqil ishlashni hamda qiziqib mutolaa qilishni o'rgatish uchun o'qituvchi izlanishi, AKT vositalaridan foydalana olishi bugungi kun talabidir. Shuni e'tiborga olib ushbu maqolada adabiyot fanini o'qitishda veb platformalardan samarali foydalanish usullarini tavsiya etmoqchiman. Ushbu metodik tavsiyalar Alisher Navoiy ijodini o'rgatish asosida shakllantirildi.

Kalit so'zlar: veb resurslar, internet platformalar, Kahoot veb resurs, quizizz.com, veb sayt, dars samaradorligi.

Abstract: In today's technological age, taking into account the fact that young students live in sync with the times, the effectiveness of simple traditional lectures has decreased somewhat. Today's demand is to find a teacher who can use ICT tools to teach students to work creatively, independently and study with interest. Taking this into account, in this article I would like to recommend the methods of effective use of web platforms in the teaching of literary science. These methodological recommendations were formed on the basis of teaching the works of Alisher Navoi.


Keywords: web resources, internet platforms, Kahoot web resource, quizizz.com, website, lesson effectiveness.

Alisher Navoiy ijodiy me'rosi o'zbek adabiyoti tarixida beqiyos o'rinn tutadi. Ta'lif jarayonida Navoiy ijodi yoshlar ma'naviy dunyosini boyitish, tasavvur olamini kengaytirish, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish hamda ilm o'rganishga


bo‘lgan ishtiyoqni ruhlantirish maqsadida o‘rgatiladi. Shunday ekan, barcha adabiyot o‘qituvchilari yuqoridaginatijaga erisha olyaptimi?

O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, ularning e’tiborini darsga jalg etish uchun, avvalo, o‘qituvchi kreativ bo‘lishi, zamon talabigabinoan rivojlanib borishi lozim. Shu o‘rinda Navoiy ijodini o‘qitish zahmatini yengillatish, zamonga moslashtirish, o‘quvchining o‘zi ham sezmagan holda qiziqib ketishini ta’minlash maqsadida darsda doimiy foydalanadigan bir nechta interfaol usullarini tavsiyalar berishga azm qildim. Hozirgi paytda informatika va informatsion texnologiyalar rivojlangani sari ko‘pdan ko‘p veb resurslar va platformalar dars jarayonlari uchun moslashtirilib borilmoqda. Bunday resurslar va platformalarning ishslash maqsadi va yo‘nalishlari har xil bo‘lib men sizlarga aynan adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodini o‘rgatishda qo‘l keladigan va mavzuni tushintirishda ishlatsa bo‘ladiganlaridan bir nechta misol keltirmoqchiman (Misollar oddiy tuzildi, o‘quvchi imkoniyat darsjasida kengaytirish vamurakkablashtirish mumkin, albatta). Informatika sohasi rivojlanganligidan dars o‘tishda internet platformalar imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Shu kabi imkoniyatlardan masalan, onlayn testlar o‘tkazish, platforma orqali dars o‘tish, krossvordlar tuzish, so‘z o‘yinlari yaratish kabilarni keltirish mumkin. Ushbu maqolada veb platformalardan bir nechasida Alisher Navoiy ijodi haqida dars o‘tish va o‘tilgan bilimlarni sinov-test qilish bo‘yicha misollar bermoqchiman. Ulardan biri kahoot.com veb resursi hisoblanadi. Bu resurs imkoniyatlari juda keng bo‘lib, butun dunyoda 50 milliondan ko‘proq faol foydalanuvchilari bor. Kahoot veb resursida dars o‘tish, test tuzish, savolnomalar o‘tkazish va yana bir necha imkoniyatlardan foydalanish mumkin. Masalan, Alisher Navoiy ijodi haqida dars o‘tib dars davomida yoki dars oxirida test olib o‘quvchilar bilimini sinashimiz mumkin. Test savollarini bir necha ko‘rinishda olish mumkin: ko‘p variantli savollar, to‘g‘ri-notog‘ri javobli savollar, javobni klaviaturadan kiritish kabi usullari mavjud. Savollarni rasmlar, giflar, audiofaylar va videotasvirlar bilan boyitishimiz mumkin. Kahoot veb resursi pedagogik o‘yin tamoyiliga asoslagan bo‘lib, testlar o‘quvchilar o‘rtasida musobaqa tarzida o‘tkaziladi. Har bir savolga javob berish uchun ma’lum miqdorda vaqt belgilanadi.

Hamma qatnashuvchilar bir vaqtda savollarga javob berishi kerak va o‘quvchilar uchun hayajonli va qiziqarli lahzasi - bu har bir savoldan keyin qatnashuvchilar reytingi ko‘rsatiladi. Albatta, har bir o‘quvchi o‘zini reytingda yuqoriqoda va iloji bo‘lsa, birinchi o‘rinda ko‘rishni xohlaydi. Kahoot resursi har bir javob uchun to‘g‘rilik va vaqt mezoni o‘rnatgan. Ya’ni, bir savolga ham to‘g‘ri ham tez javob berish kerak. Shunda, har bir savolga ball beriladi (maksimal 1000 baldan). Veb resursning aynan ushbu xususiyatidan darsda unumli foydalansabo‘ladi. Test oxirida yana bir qiziq funksiyasi bor: reytingda eng yuqori 3 ta qatnashchi podiumda ko‘rsatiladi. Maktab va litsey o‘quvchilari uchun bu ayniqla qiziqarli va kurashishga undovchi xususiyatdir. Ushbu veb resurs imkoniyatlari faqat test olish bilan tugamaydi. Unda so‘rovnomalar o‘tkazish va dars uchun onlayn prezentatsiyalar yaratish ham mumkin.



1-rasm. Testyokidars yaratilgan asosiy sahifa **2-rasm.** Ko‘p variantlisavolko‘rinishi



3-rasm. Har bir savoldan keyin Reyting **4-rasm.** Test oxirida Podium ko‘rinishi


Yana bir veb platforma quizizz.com resursidir. Unda ham dasrlarni prezentatsiya ko‘rinishida o‘tkazish mumkin. Dars prezentatsiyasi davomida bir necha ko‘rinishda savollar, testlar, savolnomalar va yana bir qancha ko‘rinishda bilimlarni tekshirish imkoniyatlari bor. Dars prezentatsiyasini bir necha usulda rang-barang rivojlantirish mumkin. Rasmlar, audio fayllar va video tasvirlar prezentatsiyaga qo‘sish mumkin. Bilimlarni sinash uchun imkoniyatlari ko‘p. Ko‘p variantli testlar, yopiq javobli savollar, javobni yozish testlari va rasmi savollar tuzish imkoni bor. O‘qituvchi o‘z kompyuterida vazifa yaratadi va talabalar uni Internetga (smartfon, planshet) ega bo‘lgan mobil qurilmalaridan alohida-alohida bajarishlari mumkin. Veb resurs shuningdek, birgalikda ishlash imkoniyatini beradi. Testlar o‘yin shaklida tashkil etilishi mumkin va o‘yinga qo‘shilish uchun o‘quvchilar havolaga o‘tishlari va maxsus kodni kiritishlari kerak. Vazifalar barcha ishtirokchilar uchun bir xil, ammo har bir kishi uchun savollar ketma-ketligi boshqacha. O‘qituvchi olingan natijalarni Excel elektron jadvaliga jo‘natishi mumkin. O‘qituvchi nafaqat o‘z testlarini va viktorinalarini yaratish, balki tayyor topshiriqlarning keng kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega. Shuningdek, yaratilgan topshiriqnini elektron pochta orqali yuborish yoki ijtimoiy tarmoqlarda bo‘lishish imkoniyati ham mavjud. Veb-versiyadan tashqari, Android va iOS platformalarida mobil ilovalar mavjud. Quizizz.com resursida o‘yin tashkil etishda siz har qanday qurilmadan foydalanishingiz mumkin darsda talabalarning smartfon va planshetlaridan foydalanish mumkin, O‘qituvchilarga sinfda to‘g‘ridan – to‘g‘ri viktorina o‘tkazish uchunmaxsus o‘qituvchi hisobini yaratishnitaklif qilinadi. Saytning barcha interfeysi aniq va soddatilda ishlangan.



5-rasm. Prezentatsiyasahifasi



6-rasm. Savollarga beerilganjavoblar



7-rasm. Reyting ko‘rinishi

8-rasm. Testoxiridanatijalarko‘rinishi

Adabiyot o‘qituvchilariga tavsiya qilmoqchi bo‘lgan veb resurslardani biri – edu-games.org saytidir. Avvalo, ushbu veb sayt imkoniyatlari bilan tanishtirib keyin adabiyot darsida Alisher Navoiy ijodi va asarlari bo‘yicha namunaviy tarzda tuzilgan ishlanmalar bilan tanishtirmoqchiman. Ushbu edu-games veb-sayt bir necha kategoriyalardan iborat. O‘quv o‘yinlari sizning o‘quvchilaringiz uchun darslaringizni yanada jozibali qilish uchun juda foydali. Bu o‘yinlar yaratish uchun ko‘p vaqt talab qilishi mumkin. Barcha o‘yinlar saytda tez fursatda yaratiladi va ishlatishga tayyor. Demak, siz yaratishingiz yoki yuklashingiz mumkin bo‘lgan cheksiz ko‘p ea o‘yinlariga egabo‘lasiz. So‘z o‘yinlari to‘plami. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish yoki mashq qilish uchun juda yaxshi bo‘lim hisoblanadi. Mashhur o‘yinlar so‘z qidiruv bor, so‘z qutisi, bingo vakrossvordlaryaratish mumkin. Gap o‘yinlar qismi ham mavjud. O‘yinlar grammatikani mashq qilishning qiziqarli usuli. O‘quvchilaruchun gaplardan tashkil topgan matnlar bo‘yicha o‘yinlar yaratsabo‘ladi. Ba’zi o‘yin ishlanmalarni chop etish o‘rniga, siz o‘quvchilaringizga o‘sha o‘yinlarni onlayn o‘ynashlariga imkon berishingiz mumkin. O‘yinlaringizni yarating va o‘quvchilarga ular yuklashi mumkin bo‘lgan excel faylini yuboring. Edu-games sayti o‘yinlari juda samaralidir, chunki talabalar edu o‘yinlarini yoqtirishdi. Ushbu veb-sayt o‘qituvchilarga o‘quvchilari uchun tez va oson dars qo‘llanmalar yaratishni osonlashtirishda asqotadi. Barcha o‘quv o‘yinlarini printerdan chiqarishga tayyorlash mumkin, sababi hamma maktablarda dars ishlanmalarni onlayn o‘tkazish uchun kompyuterlar bo‘imasligi mumkin. Siz onlayn o‘quv o‘yinlarini yaratishingiz va sinfda chop etib va ishlatilishumkin bo‘lgan pdf faylini yuklab olishingiz mumkin. O‘quv o‘yinlarning aksariyati dinamik ravishda hosil bo‘ladi, ya’ni siz cheksiz ko‘p o‘quv o‘yinlarini yaratishingiz mumkin. edu-games.org veb resursining

imkoniyataridan aynan adabiyot darslarida ishlatish mumkin bo‘lgan qismi haqida to‘xtalib o‘tdim. Endi adaviyot darsida Alisher Navoiy ijodi haqidagi mavzuda namuna sifatida ishlangan o‘quv o‘yinlaridan keltiraman.

Bular so‘z harflarini almashtirish orqali qiziqarli so‘z o‘yinidan misol. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi qahramonlar ismlari harflar o‘rni almashgan holda berilgan. O‘quvchilar so‘z harflarini to‘g‘ri joylashtirib qagramonlr ismlarini topisi kerak bo‘ladi. Ushbu maqola o‘qituvchilarga tavsiya sigatida bo‘lganligi va foydalanuvchiga ezdatushunarli bo‘lishi uchun o‘yin javoblari ham keltirilgan.

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|--|----------|----------|-------|------|----------|----------|--------|--------|-------|----------|-------|------|------|--|--|---|-------|--------|--------|------|------|----------|--------|--------|--------|----------|----------|-------|------|-------|------|
| Name: _____ Class: _____ Date: _____ word scramble <small>Nazovining ‘Xamsa’ dostonlaridagi qahramonlar</small> Look carefully at the jumbled words and try to unscrambling as many words as you can. Good luck! <table style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 33%;">oditj</td> <td style="width: 33%;">tahord</td> <td style="width: 33%;">isahn</td> </tr> <tr> <td>lafy</td> <td>nikasdan</td> <td>cidorini</td> </tr> <tr> <td>afibom</td> <td>qursof</td> <td>edruv</td> </tr> <tr> <td>emhemobu</td> <td>mujma</td> <td>sayq</td> </tr> <tr> <td>jbor</td> <td></td> <td></td> </tr> </table> | oditj | tahord | isahn | lafy | nikasdan | cidorini | afibom | qursof | edruv | emhemobu | mujma | sayq | jbor | | | Name: _____ Class: _____ Date: _____ word scramble <small>Nazovining ‘Xamsa’ dostonlaridagi qahramonlar</small> Look carefully at the jumbled words and try to unscrambling as many words as you can. Good luck! <table style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 33%;">oditj</td> <td style="width: 33%;">durroj</td> <td style="width: 33%;">tahord</td> </tr> <tr> <td>lafy</td> <td>layl</td> <td>nikasdan</td> </tr> <tr> <td>afibom</td> <td>bafrom</td> <td>qursof</td> </tr> <tr> <td>emhemobu</td> <td>mehebomu</td> <td>mujma</td> </tr> <tr> <td>jbor</td> <td>jobie</td> <td>sayq</td> </tr> </table> | oditj | durroj | tahord | lafy | layl | nikasdan | afibom | bafrom | qursof | emhemobu | mehebomu | mujma | jbor | jobie | sayq |
| oditj | tahord | isahn | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| lafy | nikasdan | cidorini | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| afibom | qursof | edruv | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| emhemobu | mujma | sayq | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| jbor | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| oditj | durroj | tahord | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| lafy | layl | nikasdan | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| afibom | bafrom | qursof | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| emhemobu | mehebomu | mujma | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| jbor | jobie | sayq | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |

www.edu-games.org

9. rasm. So‘zharflari almashtirilgan o‘yin

Keyingi imkoniyat so‘z topish o‘yinidir. Bu o‘yinda avvalo maxsus bo‘limda o‘qituvchi tomonidanlangan so‘zlar kiritiladi. Keyin veb saytularni o‘yin holatiga keltiradi. O‘quvchilar harflar orasidan yashiringan so‘zlarni topishi kerak bo‘ladi.

Ushbu o‘quv o‘yini uchun ham javoblar keltirilgan.

10-rasm. O‘yinjavoblari

Answer sheet
word search

Alisher Navoiy asarlari

Nazovning asarlari so‘zlerini tengligi

| | | |
|-------------------------------------|-----------------------------------|-------------------------------------|
| a s v g x r o n r k v n m a n s m | a s d f a o y e d o q a a e e R i | d e a c z t i e m s e t n r l i i e |
| a w n y - t n n u t s e u r g a h | n r x s u h a p b d g t t t e y t | o m a l l i r k s u e b d t k i i n |
| r h m s m e s n l i r q a y s m a | n q s h a b i m q r r h y i s u e | g ‘ a r o y i b u s - s i g ‘ a r |
| a n q s h a b i m q r r h y i s u e | g ‘ a r o y i b u s - s i g ‘ a r | o e e n n y d e l i m n r p e m a |
| p r g d i n d j u n e i x o o m d | o e e n n y d e l i m n r p e m a | f p s t y d a t b o t n c t i o s |
| f p s t y d a t b o t n c t i o s | f p s t y d a t b o t n c t i o s | m a j o l i s u n n a f o i s v e |
| m a j o l i s u n n a f o i s v e | m a j o l i s u n n a f o i s v e | c t w k a e i t z h c h h s a d a |

Name: _____ Class: _____ Date: _____
word search

Alisher Navoiy asarlari

Nazovning asarlari so‘zlerini tengligi

| | | |
|-------------------------------------|-----------------------------------|-------------------------------------|
| a s v g x r o n r k v n m a n s m | a s d f a o y e d o q a a e e R i | d e a c z t i e m s e t n r l i i e |
| a w n y - t n n u t s e u r g a h | n r x s u h a p b d g t t t e y t | o m a l l i r k s u e b d t k i i n |
| r h m s m e s n l i r q a y s m a | n q s h a b i m q r r h y i s u e | g ‘ a r o y i b u s - s i g ‘ a r |
| a n q s h a b i m q r r h y i s u e | g ‘ a r o y i b u s - s i g ‘ a r | o e e n n y d e l i m n r p e m a |
| p r g d i n d j u n e i x o o m d | o e e n n y d e l i m n r p e m a | f p s t y d a t b o t n c t i o s |
| f p s t y d a t b o t n c t i o s | f p s t y d a t b o t n c t i o s | m a j o l i s u n n a f o i s v e |
| m a j o l i s u n n a f o i s v e | m a j o l i s u n n a f o i s v e | c t w k a e i t z h c h h s a d a |

Adabiyot darslarida informatika va zamonaviy veb platformalar imkoniyatlaridan ijodkorona foydalanish mumkin bo‘lgan bir necha pedagogik usullar haqida imkon qadar batafsil to‘xtalib o‘tdim. Yuqorida keltirilgan veb platformalar va veb resurslar ro‘yxati shular bilan cheklanib qolmaydi, albatta. Bu kabi informatika sohasidagi imkoniyatlar juda ko‘p va ulardan foydalanish adabiyot darslarini yanada jonli va o‘quvchilar uchun ham qiziqarli ham samarali bo‘lishiga yordam beradi. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Adabiyot darslarini o‘qitishda informatika vositalari, aynan veb texnologiyalardan foydalanish ushbu darslarni o‘zlashtirilishi darajasini o‘stiradi. O‘quvchilaruchun mavzuni tushunish va mavzugi harbirma’lumotni qabul qilish samaradorligini oshiradi.

Foydalilanigan manbalar:

1. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.2004.
2. Pedagogika. Rasulov B. - T.2016.
3. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar.
4. AlisherNavoiy. Aforizmlar.Toshkent- 1961
5. “Pedagogik mahorat” A.Xoliqov Toshkent 2011